

Ommaviy axborot vositalari

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

QR kod

1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi OAV, matbuot, nashirlik-matbaa, axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish, media-bozorni qo'llab-quvvatlash va davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiradi.

2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son qaroriga muvofiq barcha davlat organlari va hokimliklarda axborot xizmati tashkil etilib, media-rejalar asosida press-tur, brifing va matbuot anjumanlari o'tkazish tizimi yo'lga qo'yilgan. Matbuot kotiblari OAV bilan faol muloqot o'rnatib, jamoatchilikka tezkor va ishonchli axborot yetkazmoqda.

Agentlik faoliyati O'zbekiston axborot makonida so'z erkinligi, axborot xavfsizligi, media savodxonlikni oshirish, dezinformatsiyaga qarshi kurashish hamda jurnalistlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Tarmoq malaka ramkasi (TMR) – OAV, reklama, kino, video va televideniye dasturlari sohalari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, Milliy malakalar ramkasiga (MMR) muvofiq 8 ta malaka darajasini belgilaydi.

TMRning maqsadi – tarmoq kasblarini malaka darajalari bo'yicha tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga qo'yiladigan talablarni aniqlash, shuningdek, kasbiy standartlar va ta'lim dasturlarini uyg'unlashtirishdir.

Ushbu Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

axborot mulkdori – o'z mablag'iga yoki boshqa qonuniy yo'l bilan olingan axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

axborotni muhofaza etish – axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari;

axborot resurslar – alohida hujjatlar, hujjatlarning alohida to'plamlari, axborot tizimlaridagi (axborot-kutubxona muassasalaridagi, arxivlardagi, idoraviy arxivlardagi, fondlardagi, ma'lumotlar banklaridagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to'plamlari;

axborot sohasi – obyektning axborotni yaratish, qayta ishlash va undan foydalanish bilan bog'liq faoliyati sohasi;

axborot borasidagi xavfsizlik – axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holati;

axborot egasi – qonunda yoki axborot mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga egalik qiluvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

hujjatlashtirilgan axborot – identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

maxfiy axborot – foydalanilishi qonunchilikka muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

ommaviy axborot – cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar;

Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi O'RQ-400-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-402-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-439-II-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyulda "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'RQ-42-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 26-noyabrda "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-731-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-martda "Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4640-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyunda "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-294-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyunda "Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-209-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 22-noyabrda "Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi 256-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 23-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari vakillarini davlat hokimiyati organlari huzurida akkreditatsiya qilish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 243-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 23-avgustda "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 181-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 21-aprelda "Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portaliga axborotlarni taqdim etish va joylashtirish tartibi to'g'risida"gi 116-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustda "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son Qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-yanvarda "Respublika davlat ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarga o'quv-uslubiy

filmlar yordamida dars o'tish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 24-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-oktyabrdagi "Kinematografiya sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 694-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son Qarori.

Asosiy qisqartmalar.

IFUT-2.1 – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malakalar ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Ommaviy axborot vositalari, reklama, kino, video va televideniye dasturlari sohasining – aholining keng qatlamlariga axborot, ma’lumot va ko’ngilochar kontentni yetkazishga xizmat qiluvchi muhim kommunikatsiya vositalarini o’z ichiga oladi. Ushbu soha jamiyatda axborot almashinuvini ta’minlaydi, ijtimoiy ongni shakllantiradi, mahsulot va xizmatlar targ’ibotini olib boradi hamda madaniy qadriyatlarning tarqalishida muhim rol o’ynaydi. Soha tarkibiga bosma va raqamli OAV, reklama agentliklari, kino va video ishlab chiqaruvchilar, televideniye va radioeshittirish kompaniyalari kiradi. U innovatsion texnologiyalar, kreativ yondashuv va axborot xavfsizligi bilan chambarchas bog’liq.

Ommaviy axborot vositalari, reklama, kino, video va televideniye dasturlari sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

Seksiya nomi: C Seksiyasi Ishlab chiqaradigan sanoat;

J seksiyasi Nashriyot, radioeshittirish hamda kontent ishlab chiqarish va tarqatish faoliyati;

K seksiyasi Aloqa, kompyuter dasturlashtirish, konsalting, hisoblash infratuzilmasi va boshqa axborot xizmatlari faoliyati;

N Seksiyasi Professional, ilmiy va texnik faoliyat.

O’zbekiston Respublikasida Ommaviy axborot vositalari, reklama, kino, video va televideniye dasturlari sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo’lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1.	C Seksiyasi Ishlab chiqaradigan sanoat	18 Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	18.1 Matbaa va matbaa bilan bog’liq xizmatlar	18.11 gazetalar nashr qilish	18.11.0 gazetalar nashr qilish
				18.12 Matbaa faoliyatining boshqa turlari	18.12.0 Matbaa faoliyatining boshqa turlari
				18.13 Bosma shakllarni tayyorlash va informatsion faoliyat	18.13.0 Bosma shakllarni tayyorlash va informatsion faoliyat
				18.14 Broshyuralash- muqovalash va pardozlash faoliyati va ular bilan bog’liq xizmatlar	18.14.0 Broshyuralash- muqovalash va pardozlash faoliyati va ular bilan bog’liq xizmatlar

			18.2 Axborot tarqatuvchilardagi yozuvlarni aks ettirish	18.20 Axborot tarqatuvchilardagi yozuvlarni aks ettirish	18.20 Axborot tarqatuvchilardagi yozuvlarni aks ettirish
2.	J seksiyasi Nashriyot, radioeshittirish hamda kontent ishlab chiqarish va tarqatish faoliyati	58 Nashriyotchilik Faoliyati	58.1 Dasturiy ta'minotni chiqarishdan tashqari kitoblar, gazetalar nashr qilish va nashriyotchilik faoliyatining boshqa turlari	58.11 Kitoblar nashr qilish	58.11.0 Kitoblar nashr qilish
				58.12 Ma'lumotnom a va ro'yxatlar nashr qilish	58.12.0 Ma'lumotnom a va ro'yxatlar nashr qilish
				58.13 Gazetalar nashr qilish	58.13.0 Gazetalar nashr qilish
				58.14 Jurnallar va davriy nashrlar nashr qilish	58.14.0 Jurnallar va davriy nashrlar nashr qilish
				58.19 Nashriyotchilik faoliyatining boshqa turlari	58.19 Nashriyotchilik faoliyatining boshqa turlari
		59 Kino- video filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqarish	59.1 Kino- videofilmlar va televizion dasturlar faoliyati	59.11 Kino- videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish	59.11 Kino- videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish
				59.12 Kino- videofilmlar va televizion dasturlarni ishlab chiqarishdan keyingi bosqich	59.12.0 Kino- videofilmlar va televizion dasturlarni ishlab chiqarishdan keyingi bosqich
				59.13 Kinofilmlar, video va televizion dasturlarni tarqatish	59.13.0 Kinofilmlar, video va televizion dasturlarni tarqatish
				59.14 Kinofilmlar namoyish qilish	59.14.0 Kinofilmlar namoyish qilish

			59.2 Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat	59.20. Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat	59.20.0 Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat
		60 Dasturlar yaratish, teleko'rsatuv va radioeshittirish , axborot agentliklari va kontentlar tarqatish faoliyati	60.1 Radioeshittirish va audio tarqatish faoliyati	60.10 Radioeshittirish va audio tarqatish faoliyati	60.10.0 Radioeshittirish va audio tarqatish faoliyati
			60.2 Televizion dasturlarni yaratish, namoyish qilish va video tarqatish bo'yicha faoliyat	60.20 Televizion dasturlarni yaratish, namoyish qilish va video tarqatish bo'yicha faoliyat	60.20.0 Televizion dasturlarni yaratish, namoyish qilish va video tarqatish bo'yicha faoliyat
3.	K seksiyasi Aloqa, kompyuter dasturlashtirish , konsalting, hisoblash infratuzilmasi va boshqa axborot xizmatlari faoliyati	63 Hisoblash infratuzilmasi, ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash hamda boshqa axborot xizmatlari faoliyati	63.9 Axborot xizmatlarining boshqa turlari	63.91 Axborot agentliklari faoliyati	63.91.0 Axborot agentliklari faoliyati
				63.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha faoliyat	63.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat
4.	N Seksiyasi Professional, ilmiy va texnik faoliyat	73 Reklama, bozor konyunkturasini o'rganish va jamoatchilik bilan aloqalar faoliyati	73.1 Reklama faoliyati	73.11 Reklama faoliyati	73.11.0 Reklama agentliklari
				73.12 Ommaviy axborot vositalarida reklama berish	73.12.0 Ommaviy axborot vositalarida reklama berish
			73.2 Bozor konyunkturasini tadqiq qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish	73.20. Bozor konyukturasini tadqiq qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish	73.20.0 Bozor konyukturasini tadqiq qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish

				74.10 Ixtisoslashgan dizaynerlik faoliyati	74.10.0 Ixtisoslashgan dizaynerlik faoliyati
				74.20 Fotografiya sohasidagi faoliyat	74.20.0 Fotografiya sohasidagi faoliyat
		74 Boshqa professional, ilmiy va texnika faoliyati	74.1 Ixtisoslashgan dizaynerlik faoliyati	74.30 Yozma va og'zaki tarjima	74.30.0 Yozma va og'zaki tarjima
				74.90 Boshqa toifalarga kiritilmagan professional, ilmiy va texnik faoliyat	74.90.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan professional, ilmiy va texnik faoliyat

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	12190	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan moliyaviy-iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha boshqaruvchilar, b.g.k.
2.	12221	Axborot va jamoatchilik bilan aloqalar xizmati rahbarlari
3.	12222	Reklama va mijozlar bilan aloqalar xizmati rahbarlari
4.	13303	Media (kino, video, teleko'rsatuv, audio va musiqa yozuvlari) sohasida xizmatlar va bo'limlar rahbarlari
5.	13490	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan ixtisoslashtirilgan xizmat ko'rsatish sohasidagi rahbarlar, b.g.k
6.	14311	Madaniyat, ko'ngil ochish va dam olish sohasidagi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari (obyekt boshqaruvchilari)
7.	21666	Animatorlar
8.	24311	Marketing va bozor tadqiqotlari bo'yicha tahlilchilar
9.	24312	Reklama va targ'ibot bo'yicha professional-mutaxassislar
10.	24321	Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha professional-mutaxassislar
11.	26421	Jurnalistlar va muxbirlar
12.	26422	Muharrirlar (yangiliklar va davriy nashrlar bo'yicha)
13.	26541	Rejissyorlar (reklama va kompyuter o'yinlaridan tashqari)
14.	26561	Suxandonlar (TV, radio, sahna va h.k.)
15.	26569	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan radio, televideniye va ommaviy axborot vositalarining suxandonlari, b.g.k.
16.	31143	Televideniye va radioeshittirish apparaturasi bo'yicha texniklar
17.	33119	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan moliyaviy hujjatlar va qimmatli qog'ozlar sohasidagi dilerlik va

		brokerlik faoliyati bo'yicha mutaxassislar, b.g.k.
18.	33391	Reklama agentlari
19.	33410	Ma'muriyat ishlarini tashkil etish, ijro etish bo'yicha yordamchi xodimlar
20.	34350	Boshqa mashg'ulot guruhlarga kiritilmagan san'at, madaniyat va oshpazlik san'ati sohasidagi yordamchi xodimlar, b.g.k.
21.	35212	Audio-video operatorlar
22.	35140	Veb-portal mutaxassis-texniklari
23.	41100	Umumiy profil bo'yicha ofis xodimlari
24.	73210	Matbaa sanoatida ishlaydigan ishchilar
25.	73229	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan bosma ishlari bilan shug'ullanuvchilar, b.g.k.
26.	81320	Fototexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, apparatchiklar va shunga o'xshash kasb egalari

3. Tarmoq tahlili

Milliy malakalar tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan.

TMRni ishlab chiqish va takomillashtirishda tarmoq kengashiga 50 foizdan ziyod xususiy sektordagi ish beruvchilar, ta'lim sohasi vakillari, kasbiy uyushmalar va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, mustaqil ekspertlar kiritildi. Ularning Tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga doir takliflari olindi. TMR loyihasi manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilinib, qayta ishlandi.

TMRda barcha malaka darajasidagi guruhlar, sinflar va/yoki kichik sinflar uchun maqbul kasbiy talablar belgilanishiga e'tibor qaratildi. Shuningdek, mehnat bozori talablari asosida tarmoqda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, kasbiy faoliyat jarayonida uzluksiz professional rivojlanishga sharoit yaratish, malaka darajasini tan olish va sertifikatlashtirish imkoniyatlari hisobga olindi.

Tarmoq uchun kadrlar tayyorlovchi oliy va kasbiy ta'lim muassasalari, ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda Tarmoq tahlili o'tkazildi. Tarmoqqa (sohaga) tegishli kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash yuzasidan rivojlangan davlatlar tajribalari o'rganildi. Kasbiy faoliyat sohalari (turlari) va ular bo'yicha tavsiya etiladigan dolzarb kasblar (lavozimlar) aniqlashtirildi.

Kasbiy faoliyat turlari bo'yicha bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillikning dastlabki tavsifi va Tarmoqning funksional xaritasi ishlab chiqildi.

Tarmoq kengashi tomonidan 2025-2026-yillarda yangi kasbiy standartlar ishlab chiqish rejasi shakllantirildi.

Milliy malakalar tizimini rivojlantirish bo'yicha rejalashtirilgan ishlar:

- mehnat bozori talablari va o'qitish natijalarini (learning outcomes) inobatga olgan holda, sohalar bo'yicha tarmoq malaka ramkasini takomillashtirib borish;
- kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi tomonidan kamida bitta malakani baholash markazi faoliyatini to'liq yo'lga qo'yish, baholash vositalarining ishlab chiqilishini ta'minlash hamda ekspertizadan o'tkazish;
- ta'lim dasturlarining kasbiy standartlarga muvofiqligini baholash va takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- TMR 2025-yilda "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi huzuridagi Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutida ekspertizadan o'tkazish, joriy etish;
- o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim uchun malakalarga erishish va tan olish mexanizmlarini ishlab chiqishga asos bo'ladigan kasbiy standartlarni yaratish;
- kasbiy standartlarda faoliyatning muayyan turida talab etiladigan bilim, ko'nikma, malaka darajasi, ish staji, mehnatning mazmuni, sifati va shart-sharoitlari, ishga munosabat va xulq-atvorga doir minimal talablar ifodalash;
- malaka darajasi, informal va noformal ta'lim natijalarini baholash, tan olish va sertifikatlashtirish yuzasidan ishlarni tashkil etish;
- tarmoqqa oid kasblar bo'yicha mehnat bozorining asosiy ehtiyojlari va o'ziga xos xususiyatlarini muntazam monitoring qilib borish.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasining 5 ta universiteti: Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston milliy universiteti, O'zbekiston jahon tillari universiteti, Nukus davlat universiteti, Toshkent davlat san'at va madaniyat instituti tarmoq sohalarida oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlaydi. O'rta-maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlaydigan 2 ta texnikum: Respublika televideniye va radio texnikumi, Toshkent noshirlik-matbaa texnikumi mavjud.

Axborot xizmatlari rahbarlari va xodimlarining malakasini oshirish, zamonaviy tendensiyalar, ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash masalalarida ko'maklashish maqsadida AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya Federatsiyasida mutaxassislari ishtirokida o'quv-seminarlari o'tkazildi. Namunali faoliyat yuritgan davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlarining Germaniya, Turkiya, Rossiya kabi mamlakatlarga tajriba almashish uchun xizmat safarlari uyushtirildi.

Ommaviy axborot vositalari, reklama, kino, video, televideniye dasturlari sohaları bo'yicha ixtisoslashgan ta'lim zamonaviy kasbiy faoliyatning muhim tarkibiy qismidir. Mustaqil soha sifatida shakllanib, yangi amaliy yondashuvlar va texnologik o'zgarishlarga uyg'un tarzda rivojlanib borayotgan mazkur tarmoq mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynaydi.

Bugungi global integratsiya sharoitda OAV, reklama, kino, video va televideniye dasturlari sohalarida kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Bu mazkur sohalarning nafaqat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy, balki g'oyaviy-mafkuraviy ta'sirining ortib borishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, bitta tor soha doirasida yangi kasbiy ixtisosliklarning paydo bo'lishi, media biznesning kengayishi va raqamlashtirilishi kadrlarni tayyorlash tizimiga jiddiy tuzatishlar kiritish zaruratini paydo qiladi.

Avvalo, ayni paytda mazkur sohalarda yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga mos tarzda kadrlarni qayta tayyorlash ehtiyoji ortib borayotganini tan olish kerak. Masalan, axborotni mobil telefonda almashish mumkin bo'lgan hozirgi sharoitda "internet jurnalistika", "mobil jurnalistika", "onlayn reklama" kabi ixtisosliklarning paydo bo'lishi, kino sohasida rejissyor, ssenariy muallifi, operator, prodyuser, liboslar dizayneri, muharrir, bastakor, ovoz operatori kabi bir nechta muhim kasblarning funksional vazifalarini kompyuter yordamida bitta mutaxassis tez va sifatli bajarishi mumkin. Buning uchun kadrlar raqamli asr haqiqatlariga tayyor bo'lishi kerak. O'quv dasturida kino, televideniye, radio, bosma va raqamli sohalar kabi muayyan bir media platformasida ishlash bo'yicha amaliy darslar miqdorini ko'paytirish lozim.

Hozir axborot barcha siyosiy, ijtimoiy jarayonlarga mislsiz ta'sir ko'rsatadigan yangi davr. Ayniqsa mafkuraviy ta'sir kuchlaridan adolatsiz foydalanilishi axborot funksiyalariga nisbatan munosabatlarni ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Oddiygina sun'iy intellekt tomonidan tayyorlangan (avtomatlashtirilgan) matnlar ma'lumotlarga boyligi, sintaktik jihatdan sodda tuzilgani, mantiqiy

murakkabliklardan holi bo'lgani uchun mushohadaga toqatsiz qatlamga ma'qul kelyapti. Oqibatda bunday yangiliklarga ijobiy munosabat shakllana boshladi. Kuzatuvlarga ko'ra, 20 foiz odam sun'iy intellekt ma'lumotlariga ishonadi. Biroq, katta hajmdagi materiallarni samarali qayta ishlash, kerakli ma'lumotlarni tez topish kabi foydali jihatlar bilan birga, sun'iy intellekt taqdim etgan axborot mohiyatini anglash qiyinligi, manipulyatsiya xavfi va ehtimoliy muvaffaqiyatsizliklarning mavjudligiga jiddiy e'tiborga qaratish kerak.

Tarmoq qamrab olgan sohalar shaklan va mazmunan o'zgaruvchan, davlat va jamiyat munosabatlarida eng kuchli qurol – ijtimoiy ong orqali ta'sir etish effektiga ega ekani alohida e'tiborga molik. Shunga mos tarzda mazkur sohalaridagi ta'lim shakli va mazmunini ham tom ma'noda modernizatsiya qilib borish lozim.

Nazariy jihatdan jurnalistika kasbi funksiyalari va kompetensiyalariga ko'ra kino sohasiga to'g'ri keladi. Kino esa o'z xususiyatlariga ko'ra san'atning bir turi sifatida qayd etiladi.

Aslida, bu bog'liqlik o'zaro uyg'unlikning murakkabligi bilan tavsiflanadi. Chunki ommaviy axborot vositalari, televideniye (radio), kino, video sohalar ijtimoiy ahamiyatga ega axborotni izlash, to'plash, qayta ishlash va tarqatish orqali jamoatchilikning fikriga ta'sir etadi. Bunda matn, tasvir, ovoz kombinatsiyasi orqali vizual ta'sir vositalaridan foydalanadi. Va eng muhimi – mazkur jarayonda ko'pincha taniqli shaxslar, "yulduzlar" ishtiroki va ijrosidan foydalanish targ'ibot-tashviqot, marketing va reklama samarasini beradi.

Ommaviy axborot vositalari shaxsiy fikrlarni, ideallarni, mafkuraviy faoliyat mohiyatini, voqea-hodisalar hamda jarayonlar tabiatini, estetik va axloqiy qadriyatlarni alohida vositalar orqali ijtimoiy tafakkurga integratsiya qiladi. Ayni jihat jamiyatda muayyan axborotning negativ yoki pozitiv xarakterda ekanidan qat'iy nazar, amal qilish jarayonini belgilaydi.

Ommaviy kommunikatsiyalar va jurnalistika ta'limi talabalarga tahrir yoki rejissyorlik kasbiga oid bilimlarni ham beradi. Bu o'z navbatida kino sohasidagi lavozimlar uchun zarur bo'lgan ssenariy yozish, tahrir qilish, studiyada ishlash, kamerani boshqarish, ovoz va tasvir sifatini ta'minlash kabi texnik ko'nikmalarni egallashga imkon beradi. Albatta, malaka sertifikati yoki diplomga ega bo'lish ma'lum afzalliklarni berishi mumkin. Biroq iste'dod, qat'iyat va to'g'ri yondashuv kabi xislatlar alohida maxsus ta'lim tizimida o'qimaganlar uchun ham kino olamiga eshiklarni ochishi mumkin.

Aslida "ommaviy axborot vositalari" deganda inson va tabiat, davlat va jamiyat o'rtasidagi har qanday ma'lumotni uzatishning barcha vositalari va usullari tushunilishi kerak. Masalan, ommaviy axborot vositalari nafaqat televideniye, radio, gazeta, ijtimoiy tarmoqlar, balki kino-video va teatr tomoshalari, foto, rasm, raqs kabi o'ziga xos boshqa narsalar ham bo'lishi mumkin. Ommaviy axborot almashish sohasining maqsadlari, vazifalari, obyektlari, faoliyat turlari, mahsulotlari bilan jurnalistika funksiyalarining serqirraligi, ularning ijtimoiy ong va dunyoqarashga ta'sir usullari umumiylikka ega.

Media marketing texnologiyalarining rivojlanishi va yangi platformalar va formatlarning paydo bo'lishi bilan bu yo'nalishda ham turfa shart-sharoitlarga tez moslasha oladigan, ijodiy fikrlaydigan ko'plab mutaxassislariga ehtiyoj yuzaga kelyapti.

Media-marketologlarning asosiy vazifasi maqsadli auditoriyani tahlil qilish, samarali reklama kampaniyalari strategiyasini ishlab chiqish, mijozlarning xohish-istaklarini o'rganish va e'tiborini tortadigan taklifni yaratish, ijodkorlik va bozorga moslashish qobiliyatini qamrab oladi. Shuningdek, globallashuv va integratsiya fonida ommaviy axborot vositalari xodimlarining ko'proq reklama, PR va menejment mutaxassislarga tegishli kasblarni egallashi kuzatilyapti. media-rejalashtirish ham reklama maqsadlariga erishish uchun optimal kanallar va formatlarni aniqlash, maqsadli auditoriya, samarali byudjet kabi ko'plab jihatlarni hisobga olishni talab etadigan reklama sohasida istiqbolli media kasb hisoblanadi.

Kino – mahsulotlarini jurnalistik material sifatida qarashga sabab ular badiiy jihatdan madaniyatshunoslik doirasida o'rganilsa-da, inson va jamiyat hayotining barcha jabhalariga oid axborot, voqea-hodisa va jarayonlarni jurnalistik talqinda ifoda etishi bilan bog'liq. Turli janrlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos usulda taklif etilayotgan axborotni ekran orqali olayotgan tomoshabin uni tekshirmasdan va haqqoniyligiga ishongan holda qabul qiladi. Shu tariqa kino-video mahsulotlar tobora ommalashib, an'anaviy axborot uzatishning audiovizual transformatsiyasi tarzida qabul qilinaveradi.

Media – qiziqarli va foydali materiallar yaratish orqali axborot rivojiga hissa qo'shadi, jamoatchilik fikriga ta'sir etadi. Texnologiyalar faol o'zgarib, ko'proq mutaxassislar talab qilinayotgan zamonaviy media makonda ommaviy axborot vositalari – media-bloglar, tele va radio, video ishlab chiqarish, ijtimoiy tarmoqlar buni hisobga olishi lozim.

Media makonda o'zaro manfaatli kommunikatsiyalarni amalga oshirish muhiti yaratilganida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy rivojlanish tendensiyalari kuzatiladi. Mazkur soha voqealarni kuzatish, kontent yaratish, brendlar strategiyalarini ishlab chiqish kabi murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga doir ijodkorlik va tahliliy qobiliyatlarni birlashtiradi. Bunday kasblarni egallash uchun alohida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab qiladi.

Grafik dizayn mutaxassislari mahsulotlarning vizual qismi, ya'ni brendni boshqalardan ajratib olishga va mijozlar tomonidan eslab qolishga yordam beradigan noyob materiallarni yaratish bo'yicha turli formatlarda – bosma nashrlar, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va televideniye yo'nalishlarida ishlaydi. Buning uchun ular Adobe Photoshop, Illyustrator, InDesign, After Effects, Figma kabi dizayn dasturlarida malakali bo'lishi, shuningdek, eng so'nggi tendensiyalardan xabardor bo'lish kerak.

Yoki kino sohasi ham media industriyasining bir qismi ekaniga e'tibor qaratsak. Rejissyorlar ssenariyni yozishdan tortib, montajgacha bo'lgan film yaratish jarayonini boshqarishi, suratga olish, vizual uslubni tanlash, mualliflar va aktyorlar bilan ishlash kabi vazifalarni bajara olishi lozim.

Ommaviy axborot vositalari, reklama materiallari, veb-saytlar va boshqa loyihalar uchun grafik va maketlarni esa, dizaynerlar yaratadi. Ular eng so'nggi dizayn tendensiyalaridan xabardor ijodkor bo'lish bilan birga, grafik dasturlarni ham yaxshi bilishi kerak.

Yana bir yangi yo'nalish – bloggerlikni olsak, mualliflar sayohatdan tortib pazandachilikgacha, modadan tortib siyosatgacha o'zini qiziqtirgan hamma narsa haqida yozadi. Obunachilar bilan fikrlarini o'rtoqlashadi, muhim masalalarni muhokama qiladi. Ayrimlari o'z faoliyatidan pul ishlaydi, reklama bilan shug'ullanadi, mashhur brendlar bilan hamkorlik qiladi. Eng muhimi bu maxsus ta'limni talab qilmaydi.

Zamonaviy veb-jurnalistika, bloggerlikdan farqli o'laroq, yangiliklarni tekshirish, tahlil qilish va xabar berishda jurnalistikaning kasbiy tamoyillariga asoslandi. Veb-jurnalistlar, media imkoniyatlaridan faol foydalangan holda, axborotni video, audio va grafik ko'rinishida taqdim etadi.

Veb-jurnalistika va blog yuritish uchun muayyan bilim va malakalar talab qilinmasligi uning asosiy afzalligidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Tarmoqqa tegishli sohalardagi oliy kasbiy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashga nisbatan bugungi talablar zamonaviy tendensiyalarni hisobga olinishini nazarda tutadi. Chunki, oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlovchi fakultetlar, malaka oshirish kurslari va treninglar, muayyan yo'nalishlar bo'yicha amaliyot ham mavjud. Lekin ular moliyaviy yordamga muhtoj. Biroq media hamjamiyat kadrlar siyosatini yuritishdan manfaatdor emas. Ularga qanday mutaxassislar kerakligini ta'lim tizimi aniq bilmaydi.

Bu mutaxassislar xalq xo'jaligining deyarli barcha sohalarida ishlashi mumkin. Shu bois tarmoq sohalaridagi kasbiy ta'lim tizimini izchil rivojlantirish, oliy va o'rta kasbiy ta'limni talab qilmaydigan kasb va lavozimlar bo'yicha kasbiy standartlarni shakllantirish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

Hozirgi kunda ko'plab ta'lim muassasalari tarmoq sohalarida mutaxassislarni tayyorlayotganiga qaramay, tez o'zgaruvchan sharoitda turli darajadagi kasbiy ta'lim va turli mutaxassisliklarga, tegishli bilim va malakaga ega kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Yirik xorijiy kompaniyalar kadrlarni samarali boshqarish va strategik maqsadlarga erishish manbai sifatida ko'radi va daromadning 50 foizigacha qismini kadrlar malakasini oshirishga sarflaydi. Masalan, AQShda yirik kompaniyalar bo'yicha o'tkazilgan global tadqiqotlar ular o'z byudjetining kamida 30 foizini kadrlar tayyorlashga sarflashini ko'rsatdi. Eng muhimi, bunday investitsiyalar odatda o'zini oqlaydi.

Hozirda ta'lim tizimini mazmunan yangilanib boruvchi o'quv adabiyotlari va uslubiy materiallar bilan ta'minlash masalasi kun tartibida qolmoqda. Shuningdek, har bir sohada axborot xizmatini ko'rsatish, ommaviy kommunikatsiyalarni yo'lga qo'yish, reklama-targ'ibot ishlarini yuritish talab etilmoqda.

Tarmoq sohalariga doir Davlat ta'lim standarti mutaxassis tayyorlashda uning amaliy ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Buning uchun ta'lim tizimida fanlar kesimida amaliy ko'nikmalarni egallash va rivojlantirish imkoniyatini kengaytirish lozim.

O'quv rejasidagi barcha tanlov fanlarini kasbiy xususiyatga ega mazmundagi mashg'ulotlarga yo'naltirish bu muammoning yechimi bo'lishi mumkin. Ya'ni to'laqonli amaliy baza yaratish, o'quv rejasini «muammoli vaziyatlarda tahliliy o'rganish, to'g'ri qaror qabul qilish, bajarish» tamoyiliga asoslangan ishlab chiqarish amaliyoti bilan boyitish kerak.

Tarmoq sohaları ishchilarining kasbiy faoliyat doirasi doimiy ravishda kengayib bormoqda va shunga mos ravishda uni alohida faoliyat doiralari bilan cheklab bo'lmaydi.

Bu kasblar, bir tomondan, bilim, ko'nikma va malakalarning integral va murakkab xarakterini, ikkinchi tomondan, ijodkorlik va izlanuvchanlikning namoyon bo'lishini taqozo etadi.

Ayni paytda tarmoq sohalarida 20 mingga yaqin odam mehnat qilmoqda. Zamon o'zgarishlari va talablari asosida yangi shakllantirilishi kerak bo'lgan kasb va lavozimlar paydo bo'lmoqda. Masalan:

- matbuot xizmati yo'nalishida malaka darajasi 5 bo'lgan "Matbuot xizmati mutaxassisi" (soha siyosati), "Media kommunikatsiyalar bo'yicha mutaxassis" (SMI bilan ishlash) lavozimlarini;
- ommaviy axborot vositalari yo'nalishida malaka darajasi 6 bo'lgan «PR-menejer», malaka darajasi 7 bo'lgan "Axborot agentligi direktori (o'rinbosari)";
- jurnalistika yo'nalishida malaka darajasi 7 bo'lgan "Spichrayter", «Mas'ul kotib (o'rinbosari)";
- internet jurnalistika bo'yicha malaka darajasi 7 bo'lgan "Sun'iy intellekt muharriri»;
- reklama sohasida malaka darajasi 6 bo'lgan «Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis»;
- televideniye yo'nalishida malaka darajasi 7 bo'lgan «Telekanal direktori», «Badiiy kengash a'zosi (expert)», malaka darajasi 6 «Tele-ko'rsatuv muallifi»;
- radio bo'yicha malaka darajasi 6 bo'lgan «Radio boshlovchi», «Radio-eshittirish muallifi» lavozimlarini klassifikatorga kiritish taklif etiladi.

Tadqiqotchilar ommaviy axborot vositalari mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim tizimini takomillashtirish va yangi avlod professional kadrlarini tayyorlash uchun media-ta'lim mazmunini o'zgartirish zarurligini tasdiqlaydi. Bunda yosh mutaxassislarning axborot iste'molchisi emas, aksincha uning egasi sifatida namoyon bo'lib, o'ziga nisbatan jamoatchilikning aniq talabi mavjudligini his qilishini ta'minlash kerak bo'ladi.

Tarmoq yo'nalishlari bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirayotgan professor-o'qituvchilarning media kompetensiyalari, zamonaviy media makonning funksional va tematik xususiyatlarini baholashi, yolg'on axborotni tekshirish ko'nikmalari ham alohida muhim hisoblanadi. Bu yangi ijtimoiy muammolarni anglash hamda

jamoatchilik fikrini shakllantirish va boshqarish kontekstida ommaviy kommunikatsiyalar bo'yicha mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq professional xavf-xatarlarni kamaytirish imkonini beradi.

Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassislar axborot makonini to'ldirishda bevosita ishtirok etadi va jamiyatdagi kayfiyat va ijtimoiy voqelikka, auditoriyaning xohish va qarashlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda bu jamoatchilik ongini manipulyatsiya qiluvchi soxta va yolg'on ma'lumotlardan himoyalangan xavfsiz axborot makonini yaratishga xizmat qiladi.

Axborot jamiyatining jadal rivojlanishi fonida shaxsning axborot bilan o'zaro munosabatlarining tobora murakkablashib, nomuvofiq va ishonchsiz muhit yuzaga kelayotgani jiddiy muammolardan hisoblanadi. Chunki mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradigan fundamental omillar – ma'lumotni tahlil qilish va unga munosabat bildirish salohiyati, manipulyatsiya usullari va soxta ma'lumotlar belgilaridan xabardorlik ham nazariy bilimlar, ham amaliy ko'nikmalarga borib taqaladi.

Bunday muammolarga yechim topish uchun axborot vositalari va ommaviy kommunikatsiyalar sohalarida quyidagi asosiy tamoyillar amal qilishiga erishish, kadrlar tayyorlash tizimini shu maqsadga yo'naltirish lozim:

- demokratik davlat va fuqarolik jamiyati mavjudligi va rivojlanishining eng muhim sharti – fuqarolarning faktlar va sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida ishonchli, aniq va to'liq ma'lumot olish huquqini ta'minlash;
- har qanday sharoitda (favqulodda vaziyatlar bundan mustasno), kasbiy etikaning asosiy tamoyillari, normalari va standartlarga muvofiq harakat qilish;
- xalqaro va milliy qonunchilikka muvofiq fuqarolarning shaxsiy va oilaviy hayoti, jismoniy va ma'naviy daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmati bilan bog'liq huquqlarini hurmat qilish;
- shaxsga nisbatan irqi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;
- voyaga yetmaganlar haqidagi ma'lumotlarni Xalqaro Jurnalistlar Federatsiyasi Kongressida (2001 yil Seul) qabul qilingan "Bolalar haqida ommaviy axborot vositalarida xabar berish standartlari va tamoyillari", UNICEFning "Bolalar haqida hisobot berish prinsiplari" kabi hujjatlar hamda milliy qonunchilik talablariga muvofiq e'lon qilish;
- turli axborot urushlarida, auditoriya ongiga ta'sir etish maqsadida dezinformatsiya va axborotni manipulyatsiya qilishda ishtirok etmaslik;
- axborot uzatish va ommaviy kommunikatsiyalar jarayonida, jamoat manfaati nuqtai-nazaridan, aholi salomatligi va xavfsizligini muhofaza qilishga daxldor har qanday g'ayriqonuniy harakatlarni aniqlash va fosh etish.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1.	12221001	Axborot xizmati rahbari (matbuot kotibi)
2.	26422012	Tahririyat hay'ati a'zosi (nashriyot, gazeta va jurnal tahririyati)
3.	13302002	Bosh muharrir (nashriyot, gazeta va jurnal tahririyati)
4.	14311009	Bosh muharrir
5.	13490010	Bosmaxona boshlig'i
6.	13303016	Radio-televizion dasturlar direktori
7.	12221002	Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha bo'lim (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)
8.	12222005	Reklama-axborot bo'limi (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)
9.	12222001	Axborot-texnik markaz boshlig'i
10.	12222004	Reklama bo'limi (xizmat, qism) boshlig'i (mudiri)
11.	24311002	Marketing bo'yicha maslahatchi
12.	12221003	Matbuot markazi boshlig'i
13.	24312005	Reklama bo'yicha professional-mutaxassis
14.	13490026	Muxbirlar byurosi mudiri
15.	13490010	Bosmaxona boshlig'i
16.	14311036	Tasvirga tushirish guruhi, kartina direktori
17.	14311010	Bosh ovoz rejissyori
18.	13303003	Bosh prodyuser
19.	13303004	Bosh rejissyor
